

**Xalqaro Nordik universiteti "Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti" da  
Wall of Fame - Shon-sharaf doskasining tantanali ochilish marosimi!**

*Alimuxametov Usmonjon Azimjonovich*  
*Xalqaro Nordik Universiteti*  
*Tyutor tarbiyachi*  
*u.alimuxametov@nordicuniversity.org*  
*+998950777050*

**BAYONNOMASI**

20.11.2024 yil

№\_\_\_\_

Toshkent sh.

**Qatnashdilar:**

**Sh. I. Mustafakulov** – Xalqaro Nordik universiteti  
rektori;

**E. Umarov** – Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti  
dekani;

**Z. Uralbayev** – Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti  
dekani muovini;

**X. Mamajonova** – Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti  
dekani muovini;

**Tyutor tarbiyachi pedagoglar jamoasi;**  
va **Xalqaro Nordik universitetining talabalari;**

Bugun, 2024-yil 17-noyabr, Xalqaro talabalar kuni munosabati bilan Xalqaro Nordik universitetida faol talabalarimizni muvaffaqiyatlarini o‘zida aks ettirgan shon-sharaf doskasining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Universitetimizning "Wall of Fame" – Shon-sharaf doskasi yangi suratlar bilan to‘lib, talabalarimizning nafaqat o‘quvdagi, balki ijtimoiy faoliyatdagi yutuqlari ham e’tirof etildi.

Hozirda, shon-sharaf doskasida talaba-qizlarimizning suratlari ko‘rinishi kuchaygan bo‘lsa-da, ushbu muvaffaqiyatlar yigitlarimizni ham ilhomlantirishi kerakligi ta’kidlandi. "Faolroq bo‘lamiz, talaba-yigitlar!" – deb bildirildi. Bu, universitetda tenglik va hamjihatlikni ta’minlash, har bir talabaning yutuqlarini nishonlash va barcha talabalarga ilhom berish maqsadida o‘tkazilgan muhim va motivatsion tadbirdir.



Shon-sharaf doskasi, nafaqat o‘quv yutuqlarini, balki ijtimoiy faollikni, jamoaviy ishlarni va volontyorlik faoliyatlarda yuksak natijalar ko‘rsatgan talabalarimizni taqdirlash imkoniyatini yaratadi. Bu orqali universitet jamoasining birligi va kuchini yanada oshirishga erishish maqsad qilingan.

Talaba-qizlarimizni muvaffaqiyatlari bilan tabriklaymiz va talaba-yigitlarimizni ham yanada faol bo‘lishga chaqiramiz, deyildi tadbir so‘nggida!